

## MUTRIBIY SAMARQANDIY “TAZKIRAT USH-SHUARO” ASARINING ADABIY AHAMIYATI

**Hamidova Dilnura Lutfullayevna**

*Tojik tili ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi TerDU*

**Qurbonaliyeva Maxfirat Sa'dullayevna**

*Tojik filologiyasi va sharq tillari kafedrası, TerDU*

*qurbonaliyevamaxfirat@tersu.uz*

**Annotatsiya.** Maqolada Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarining tarixiy-adabiy qimmatini va XVII asr Movarounnahr adabiy muhitini o'rganishdagi birlamchi manbalik xususiyatlari tahlil qilingan. Manbada ilk bor tilga olingan 70 ga yaqin ijodkor hayoti, hukmron sulola vakillarining she'riyatga homiyligi hamda shoh shoirlar faoliyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqotda tazkiraning shoirlar madaniy maqomi, ilmiy ixtisoslashuvi (aruz, muammo, tabobat, musiqa va b.) hamda ustoz-shogirdlik an'analarini belgilashdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, muallifning shakliy va estetik mezonlarga asoslangan adabiy-tanqidiy qarashlari maqolaning markaziy obyektini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** Mutribiy Samarqandiy, “Tazkirat ush-shuaro”, tazkiranavislik, birlamchi manba, Movarounnahr adabiy muhiti, shoh shoirlar, devon, ustoz-shogirdlik, adabiy tanqid, estetik mezon.

**Аннотация.** В статье анализируется историко-литературная ценность антологии (тазкира) Мутриби Самарканди «Тазкират уш-шуара» как первоисточника по изучению литературной среды Мавераннахра XVII века. С научно-теоретической точки зрения освещаются сведения о жизни около 70 поэтов, впервые введенных в научный оборот, а также покровительство правящей династии над литературой. В исследовании раскрывается роль тазкира в определении научного статуса поэтов (аруз, муаммо, медицина, музыка и др.) и традиций наставничества. Также центральным объектом статьи являются литературно-критические взгляды автора, основанные на формальных и эстетических критериях оценки поэзии.

**Ключевые слова:** Мутриби Самарканди, «Тазкират уш-шуара», тазкиранавислик (составление антологий), первоисточник, литературная среда Мавераннахра, цари-поэты, диван, наставничество, литературная критика, эстетический критерий.

**Abstract.** The article analyzes the historical and literary value of Mutribi Samarqandi's anthology “Tazkirat ush-shuaro” as a primary source for studying the literary environment of 17th-century Mawarannahr. From a scientific perspective, it examines biographical data on nearly 70 poets introduced to science for the first time, alongside the ruling dynasty's patronage of literature. The study highlights the anthology's role in identifying the academic specializations of poets (prosody, riddles, medicine, music, etc.) and master-disciple traditions. Furthermore, the author's literary-critical views based on formal and aesthetic criteria represent the core focus of the paper.

**Keywords:** Mutribi Samarqandi, “Tazkirat ush-shuaro”, tazkiranavislik (anthology writing), primary source, Mawarannahr literary environment, royal poets, divan, master-disciple tradition, literary criticism, aesthetic criterion.

**Kirish.** Tazkiralarning tarixiy-adabiy qimmatini, asosan, shoirlar hayoti va ijodiy faoliyatini yoritish, xususan, ularning tug'ilgan joyi, sanasi, safarlari, saroy va amaldorlar bilan aloqalari, kasb-kori, vafot etgan yili kabi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan belgilanadi. Adabiyotshunos U. Karimovning ta'kidlashicha, Mutribiy Samarqandiyning mazkur asarida 70 ga yaqin ijodkor haqida ilk bor ma'lumot berilgan bo'lib, ular aynan ushbu manba tufayli fanga ma'lumdir. Shu bilan birga, kitobda boshqa

muhim ilmiy nuqtalar ham bayon etilgan [2, 107]. Tadqiqotchi U. Karimov tomonidan e'tirof etilgan eng ustuvor jihat - nomlari faqat shu tazkira orqali bizgacha yetib kelgan shoirlar siymosini tiklash bo'lsa, asarning bundan kam bo'lmagan yana bir qimmatli tomoni shundaki, muallif o'zi keltirgan ko'plab ijodkorlar bilan bevosita muloqotda bo'lgan, ularning ilmiy salohiyati, dunyoqarashi va notiqlik mahoratini shaxsan sinovdan o'tkazgan. Ya'ni, tazkiradagi ma'lumotlarning aksariyat qismi birlamchi manba hisoblanadi. Boshqa jihatdan, muallifning shoirlarni o'zi bilan bo'lgan tanishganlik darajasiga ko'ra guruhlarga ajratgani zamonaviy tadqiqotchilarga ushbu ijodkorlarni ilmiy tahlil qilishda va ma'lumotlarning haqqoniylik darajasini aniqlashda katta qulaylik yaratadi. Bunda tadqiqotchi shoirning asar tarkibida egallagan o'rniga qarab, tazkiranavis keltirgan ma'lumotlarning qay biri shubhali ekanini anglab olishi mumkin. Shu bois, kitobdagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi uning eng muhim mezonlaridan biridir, zero bunday xususiyat fors-tojik adabiyotidagi barcha tazkiralarga ham xos emas.

**Adabiyotlar tahlili.** Bundan tashqari, alohida va batafsil to'xtalishni talab etadigan yana bir jihat mavjud. Mutribiy o'z davrida hukmronlik qilgan sulolani ma'rifatparvar va she'riyat shaydosi sifatida ko'rsatishga harakat qilgan. Shu maqsadda "Tazkirat ush-shuaro"ning "fasl" deb nomlangan birinchi qismida ijodkor shohlar haqida so'z yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, asarning birinchi fasli shoh shoirlarga bag'ishlangan mustaqil kichik tazkirani yodga soladi. Bizningcha, Mutribiyning she'riyatga aloqador bo'lgan shoh va shahzodalarni alohida faslga kiritishi bir necha omillar bilan izohlanadi:

Shoironro aziz boyad dosht,

Ki az eshon baqo pazirad nom.

She'ri Salmon nigar, ki toza az ust,

Nomi Sulton Uvays dar ayyom.

(Mazmuni: Shoirlarni aziz tutish, qadrlash lozim, chunki inson nomi ular tufayli boqiylik kasb etadi (o'lmas bo'lib qoladi). Salmonning she'riga bir boqgin: ushbu davrda Sulton Uvaysning nomi aynan uning she'ri bilan barhayotdir (yashab kelmoqda).

Birinchiidan, she'r bitgan shoh va shahzodalar, hokim va farmondorlarning barchasi o'z davrining shoiru olimlari bilan hamsuhbat va maslahatchi bo'lishgan, aynan mana shunday adabiy muhit ta'sirida ularda she'riy iqtidor shakllangan. Bu fikrni boshqa tadqiqotchilarning quyidagi mulohazalari ham tasdiqlaydi: "Olimlarni rag'batlantirishga moyil bo'lgan shoh va shahzodalar shoirlar bilan muloqotda bo'lish va ularning ash'orini tinglash natijasida o'zlarida ham so'z san'atiga nisbatan ishtiyoq sezishgan va gohida forig' vaqtlarida she'r mashq qilishgan" [5, "alif"–"be"].

Ikkinchiidan, muallif ularni alohida faslda jamlash orqali o'z davri adabiyoti va she'riyatining rivojlanish jarayonida mazkur hokim va hukmdorlarning xizmati katta bo'lganini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Zero, agar ularning ilm va she'riyat ahliga bo'lgan yuksak e'tibori va homiyligi bo'lmaganida, Movarounnahrning hududiy jihatdan unchalik katta bo'lmagan ikki markazi - Samarqand va Buxoro adabiy muhitida bir davrning o'zida

bu qadar ko‘p shoirlar yetishib chiqmagan bo‘lar edi. Bunday xususiyat tazkirada zikr etilgan va muallif shaxsan ularning xizmatida bo‘lgan yoki ular haqidagi ta‘riflarni saroy ahlidan eshitgan deyarli barcha shoh shoirlarning tarjimai holi bayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, u Abdullaxonning tarjimai holidan ushbu amirning ko‘plab fazilatlarini arabcha so‘zlar bilan yo‘g‘rilgan badiiy va balandparvoz tilda madh etgandan so‘ng shunday yozadi: “...Jannatmakon xoqon hazratlari bu so‘zlarni tinglagach, ma‘qullab, (muallifni) saqarlot (qimmatbaho movut) to‘n va bir nechta in‘omlar bilan siyladilar hamda ketishga ruxsat berdilar. U zot sog‘lom ta‘b va to‘g‘ri zehn sohibi bo‘lib, so‘zshunoslik bobida tengsiz, nuqtadonlikda esa mashhur edilar. Jahondorlik va mamlakatni boshqarishdek yuksak maqomga ega bo‘lishlariga qaramay, so‘z mulkini zabt etishga ham alohida tavajjuh ko‘rsatar, shirin so‘zlar va rang-barang baytlarga cheksiz moyilliklari bor edi. Ushbu qit‘a mazmunida aytilganidek: ...”

Keltirilgan ushbu iqtibosdan nafaqat tilga olingan hukmdor shaxsiyatiga aloqador, balki davrning adabiy jarayonlaridan ham darak beruvchi bir nechta muhim jihatlarni namoyon bo‘ladi. Mutribiy o‘z tazkirasida she‘riyat va insho (nasr) san‘ati bilan shug‘ullangan hamda o‘z davri adabiyoti rivojiga hissa qo‘shgan 17 nafar turli hukmdorlar haqida ma‘lumot beradi. Asarning ushbu qismini shoh shoirlarga bag‘ishlangan mustaqil bir tazkira sifatida ham taqdim etish mumkin. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, mazkur bobda muallifning tili va bayon uslubi tazkiraning keyingi qismlariga nisbatan birmuncha murakkabdir, bu esa uning podshohlar ta‘rifini san‘atli va saj‘li (qofiyali) nasr bilan bayon qilgani oqibatidir.

Alohida shoirlarning mavqei va so‘z san‘atidagi mahoratini belgilovchi ilk mezon - ular merosining hajmi va sifati hisoblanadi. Masalan, shoirning o‘z devonini murattab qilgan-qilmagani muhim ahamiyatga ega, zero o‘tmishda hamma ijodkor ham devon tuzishga qodir bo‘la olmagan. Mutribiy Samarqandiy asarida devon sohibi bo‘lgan 20 dan ortiq shoirning nomini tilga oladi. Aminiy Dahbediy [4, 29b], Afzaliy Samarqandiy [4, 41a], Ibni Yamin Shibirg‘oniy [4, 52b], Boqiy Xumdonagiy [4, 64a], Choshniy Samarqandiy [4, 72a], Duoiy Buxoriy [4, 80b], Valiy Dashtbayoziy [4, 99a], Vahshiy Bofqiy [4, 100b], Zohidiy Muhammad Hoshim [4, 107b], Hozir Samarqandiy [5, 117b], Ma‘sum Buxoriy [5, 144b], Muhtasham Koshoniy [4, 150b], Nisoriy Buxoriy [4, 152b], Sulton Muhammad Nozimiy [4, 167a], Said Hujrador [4, 172b], Urfiy Sheroziy [4, 563], Fig‘oriy Samarqandiy [4, 179a], Fayziy Hindiy [4, 187b], Fuzuliy Bag‘dodiy [4, 189a] va Saburiy Samarqandiy [4, 191b] kabilar ana shunday ijodkorlar sirasiga kiradi.

Xususan, tazkiranavis Fayziy Hindiy haqida shunday yozadi: “Bu faqir uning she‘riy devonini to‘liq ko‘chirib chiqdim, nihoyatda jonbaxsh she‘rlar va ko‘ngilni ochuvchi ma‘nolarni mutolaa qildim, u yerda she‘riyatning murakkab san‘atlaridan qo‘llangan nuqtasiz (muhmala) bir qasida ham namoyon bo‘ldi” [4, 187b]. Ya‘ni, muallif shoirning o‘tmishda uning nufuzini oshiradigan devon sohibi ekanini qayd etish bilan birga, uning badiiy mahoratiga baho berishdan ham yiroqlashmaydi va uni san‘atli she‘rlar

yaratishda mohir ijodkor sifatida qalamga oladi. Shuningdek, Mutribiy mazkur shoirlar orasidan Duoiy Buxoriy she'rlarining hajmi 1800 bayt [4, 81a] va Sulton Muhammad Nozimiy merosi 7000 baytdan [4, 167a] iborat ekanini alohida ko'rsatib o'tadi. Bundan tashqari, Mutribiy o'z tazkirasida shoirlar ijodidan ko'plab namunalar keltiradi. Sirius Shamiso va Shahlo Farqadoniylar Orzu tazkirasining ushbu yo'nalishdagi qimmati yuzasidan olib borgan muhim tadqiqotlarida ta'kidlaganlaridek, tazkiralarning eng ustuvor jihatlari va adabiy qimmatidan biri shundaki, ular "turli sabablarga ko'ra devonlari bizgacha yetib kelmagan shoirlarning baytlarini o'z bag'rida saqlab qolgandir" [6, 10].

Mutribiy asaridagi ma'lumotlarning qimmatiga doir yana bir jihatni ilova qilish mumkin: muallif 40 ga yaqin shoirning ilm o'rganish jarayoni hamda ularning aynan qaysi ilm tarmog'i bo'yicha ustod (mutaxassis) bo'lganini aniq qayd etib o'tadi. Tazkiranavis yashagan davrda ommalashgan fanlar asosida olib borgan tasnifimizga ko'ra, ijodkorlarning aksariyati adabiyot ilmlarida, xususan, aruz, qofiya, muammo va insho yo'nalishlarida yuksak mahorat ko'rsatganlar. Mutribiy o'z asarida Ashrafiy Mirramuziyni aruzda [4, 38b], Jamiliy Buxoriyni muammoda [4, 71a], Yavmaliy Miyonkoliyni muammoda [4, 138b], Moiliy Samarqandiyni muammo va aruzda [4, 183b], Mirakiy Munshiy insho, muammo, aruz va qofiyada [4, 142b], Muqimiy Samarqandiyni aruz va qofiyada [4, 143a], Farshiy Samarqandiyni muammo, aruz va qofiyada [4, 182b], Fayziy Kosoniyni muammo va aruzda [4, 185a], Farhodi Tomani muammoda [4, 187b], Saburiy Samarqandiyni aruz, qofiya va muammoda [4, 191b], Xayriy Xolidiyni aruz, qofiya va muammoda [4, 223b] hamda Xurramiy Buxoriyni qofiya ilmida [4, 225b] ushbu sohalarning yetuk ustodlari sifatida e'tirof etib, mazkur guruhga kiritadi.

Shuningdek, Boqiy Darziy Buxoriyning "Yusuf va Zulayho" dostonidagi murakkab o'rinlarga sharh yozgani [4, 58b], Hoshimiy Buxoriyning Fattohiy Nishopuriy qalamiga mansub "Shabistoni nikot" asariga "Sham'i Shabiston" nomli sharh bitgani [4, 86a] hamda Pirmalikning Ubayd Zokoniylar hajviyalari uslubida bir risola yaratgani haqidagi ma'lumotlar ham muallif davrida mavjud bo'lgan va tazkirada o'z aksini topgan boshqa adabiy jarayonlarning belgilaridandir. Adabiyot ilmlari bilan bir qatorda, "Tazkirat ushshuaro" muallifi o'z davrida quyidagi sohalar bo'yicha ustod sifatida tanilgan bir guruh shoirlarni ham zikr etadi:

Tarix ilmida: Joniy Kobuliy [4, 67b], Yavmaliy Miyonkoliy [4, 123b], Miraki Navqoiy [4, 142a], Arziy Samarqandiy [4, 176a], Arshiy Keshiy [4, 178a]; Musiqqa ilmida: Muhammadhakim Mirzoi Kobuliy [4, 25b], Asvadiy Buxoriy [4, 44b], Dir'iy Chorjo'iy [4, 84a], Darveshali Changiy [4, 50b], Ishqiy Mirtabib [4, 174b];

Siyoq (maxsus hisob-kitob va moliya ilmi) sohasida: Viqoriy Samarqandiy [4, 94b], Latif Samarqandiy [4, 132a], G'aribiy Hiraviy [4, 235a]; Hikmat (falsafa) va hay'at (astronomiya) ilmlarida: Yusuf Qorabog'iy Iroqiy [4, 125b], Miraki Navqoiy [4, 142a], Sulton Muhammad Nozimiy [4, 167a], Farhodi Toma [4, 187b], Sanoiy Mashhadiy [4,

219b]; Fiqh ilmida: Sobiriy Toshkandiy [4, 194b], Muflisiy Toshkandiy [4, 152a], Shokiriy Samarqandiy [4, 206b]; Nujum (astrologiya) ilmida: Farhodi Toma [4, 187b];

Jo'g'rofiya ilmida: Nosir Buxoriy.

Mutribiy, shuningdek, Davoiy Samarqandiyning tabobatga oid "Qavoid-i Hoshima" nomli risolasi borligiga [4, 79b] va Ishqiy Mirtabibning "tib ilmida muborak qadam (sharofatli)" bo'lib shuhrat qozonganiga ishora qilib, mazkur shoirlarning ushbu ilmda mukammal mahoratga ega bo'lganliklaridan xabar beradi.

Mutribiy Samarqandiy shoirlarning shaxsiyati, ularning she'riyat va o'z davrining boshqa fanlariga doir ilmu dunyoqarashi xususida ma'lumot berish bilan bir qatorda, ijodkorlarning o'zaro adabiy aloqalari va munosabatlari masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Dastlabki fasllarda shoirlarning donishmandlar va saroy ahli bilan bo'lgan aloqalari ko'rib chiqilgan edi, bu esa o'z navbatida ijodkorning ijtimoiy maqomini belgilovchi omil hisoblanadi. Agar shoirning boshqa ijodkorlar bilan bo'lgan munosabatlarini tadqiqot obyektiga aylantirsak, uning madaniy va ma'naviy maqomi bilan bog'liq masalalar ham ma'lum darajada o'z yechimini topadi. Zero, shoirning adabiy mavqeini baholashda aksariyat tazkiranavislar ijodkorlarning bilim va mahorat darajasini aynan mana shu mezon orqali ham ko'rsatib o'tganlar.

Masalan, Mutribiy hali ijodining ilk bosqichida bo'lgan, ammo yuqori qobiliyatga ega bir qancha shoirlarni o'sha davrning mashhur so'z ustalari shogirdlari sifatida tanishtiradi. U ushbu toifadagi ijodkorlardan Janduiy Buxoriy [4, 71a], Davoiy Buxoriy [4, 80b], Shohidiy Charmgar [4, 212a], Toyibiy Buxoriy [4, 215a], Zotiy Buxoriy [4, 212a] va boshqalarni o'z ustozlari - "Maxdumi Hasanxo'ja Nisoriy"ning shogirdlari qatorida tilga oladi. Shu bilan birga, mazkur ijodkorlarning tarjimai holini bayon qilish asnosida, ularning shoirlilik iste'dodi va tabiatiga turlicha ishoralar qiladi. Jumladan, u shunday yozadi: "Shohidiy Charmgar Maxdumi Hasanxo'ja Nisoriyning suyuqli shogirdlaridandir. Buxoro hududida tug'ilgan. Puxta va mustahkam (mazbut) she'rlari bor..." [4, 227a]. Yoxud Toyibiy Buxoriy xususida shunday ma'lumot keltiradi: "Toyibiy Buxoriy - Toyibiy Mullo Shohmuhammad nomi bilan shuhrat qozongan va Maxdumi Hasanxo'ja Nisoriyning e'tiborli shogirdlaridandir... To'liq layoqat va qobiliyatga (ahliyat) ega" [4, 215b]. Muallif tomonidan ishlatilgan "to'liq ahliyatga ega" iborasi ushbu ijodkorning she'riyat ilmida yuksak mahorat sohibi ekanini anglatadi.

**Muhokama va natija.** Bundan tashqari, Mutribiy Bahriy Samarqandiyning Mirdo'stiy Bo'stonxoniyga shogird bo'lgani [4, 61a], Hijo'iy Marviy [4, 93b] va Mahrumiy Buxoriylarning [4, 148b] Mavlono Mushfiqiy shogirdlari davrasiga (halqai talomiza) mansubligi, Vajehiy Axsikatiyning Mavlono Yusuf Qorabog'iy aqidasi qo'yganligi [4, 96b], Zamiriyning Vuqoiy Isfahoniya ustodlik qilgani [4, 107b], Lavhiyning o'zini Mullo Junaydiy shogirdi deb bilishi [4, 132a], Shayx Fayziy Hidiyning Fig'oriy Hindiy ustidagi ustodlik haqqi [4, 190a] hamda Mullo Nozimiyaning Rashkiy Shahrizabziyga ustodlik qilgani [4, 167a] kabi ko'plab muhim ma'lumotlarni bayon etadi.

Yuqoridagi misollarda Mutribiy o‘z davrining eng mashhur siymolariga ishora qilgan bo‘lsa, ba‘zan u o‘z shogirdlariga qaraganda kamroq tanilgan shaxslarga ham e‘tibor qaratadi. Masalan: “Yusuf Qorabog‘iy Iroqiy - Yusuf oliy ismli va Mullo Navand nomi bilan mashhur bo‘lgan, olimlarning eng bilimdoni (a‘lamul-ulamo) - Mavlono Mirzojonning e‘tiborli shogirdlaridan bo‘lmish fazilat va karam sohibi Mavlono Yusuf Qorabog‘iy Iroqiyning ulug‘ nomidir...” [4, 125b].

Biroq, Mutribiy ham boshqa tazkiranavislar singari, shoirning ma‘naviy va adabiy mavqeini ko‘rsatish uchun ko‘proq uning o‘z davrining taniqli va mashhur zamondoshlari bilan bo‘lgan aloqalariga to‘xtaladi. Shu nuqtayi nazardan, tazkiralarni asosan taniqli ashxoslarning tarjimai holini yorituvchi manba sifatida baholagan tadqiqotchilarning fikrlari bu o‘rinda haqiqatga ancha yaqindir. Tazkiranavislik jarayonida o‘ziga xos va munosib maqomga ega bo‘lgan yana bir muhim masala - bu adabiy tanqid hisoblanadi. Albatta, tazkiralalar bilan bir davrda shakllangan va ijodkorlarning tanqidiy qarashlarini o‘z ichiga olgan mumtoz nazariy asarlarni ham ushbu siraga kiritish mumkin. Biroq tazkiralardagi tanqidning o‘ziga xosligi shundaki, u muayyan shoirning hayoti, merosi va asarlarining badiiy xususiyatlarini aniqlash bilan parallel ravishda olib boriladigan nihoyatda tizimli va uslubiy tanqiddir. Masalan, Mutribiy Samarqandlik Abdol Sultonning o‘tkir va yorqin iste‘dodi haqida ma‘lumot berish bilan birga, uni “sanchib aytilgan (mulohazali) ta‘b va yoqimli so‘z sohibi edi” deya madh etadi [4, 12a]. Tazkiranavis tomonidan shoirga berilgan bunday yuksak baho ushbu ijodkor she‘riyatining eng muhim xususiyatini anglashdan dalolat beradi. Mazkur fikrning davomi sifatida muallifning: “Bu faqirning amakisi aytar edi: «Hazrati saltanatshior (hukmdor) nozik ta‘b sohibi edilar va tabiiy (matbu‘) she‘rlarga qaraganda, san‘atli (masnu‘) she‘rlarga ko‘proq ko‘ngil bog‘lar edilar»” [4, 12b] degan ta‘kidi ham tilga olingan shoirning so‘z qo‘llash uslubini yanada aniqlashtiradi. Tazkiranavis xuddi shu uslubda boshqa ko‘plab shoirlarning she‘riyati va so‘z san‘atini ro‘yobga chiqaradi. Jumladan: Abulxayr Sulton haqida: “E‘tiborli xushta‘blar va mashhur nodirago‘ylardan bo‘lib, she‘r aytishda nihoyatda diqqat qilar edi” [4, 50b]; Odamiy Samarqandiy haqida: “Yuksak ta‘b va dilbar so‘zlar sohibi edi” [4, 51b]; Boqiy Buxoriy haqida: “O‘tkir ta‘b va jo‘shqin so‘zlar sohibi edi” [4, 58a]; Hoshim Buxoriy haqida: “Nozik ta‘b va puxta (haqiqatga asoslangan) so‘zlar sohibi edilar” [4, 86a]. Ushbu va shunga o‘xshash “nozik ta‘b” (tab‘i daqiq), “sog‘lom ta‘b” (tab‘i salim), “go‘zal ta‘b” (tab‘i neku) kabi iboralar orqali biz tazkiralarda she‘rni baholash va anglashning ilk unsurlarini ko‘rishimiz mumkin. Bunday holatlarda tazkiranavislar o‘zlarining tanqidiy qarashlarini so‘z ustasining shaxsiyati, hayoti yoki ismi bilan bog‘lashga ko‘proq harakat qiladilar. Masalan, tadqiqot obyekti bo‘lgan ushbu tazkirada Anjumiy haqida shunday deyilgan: “E‘tiborli xushta‘blar va tanilgan nodirago‘ylardandir. Garchi tashqi ko‘rinishidan xunuk (karehmanzar) bo‘lsa-da, she‘rlarining go‘zalligi va so‘zlarining latofati bilan ahli nazarning (she‘rshunoslarning) diydasi nuridir” [4, 49b]. Ta‘kidlash joizki, Mutribiyning tazkiradagi tanqidchilik mahorati, asosan, mana shu

uslubga tayanadi va faqat sanoqli o‘rinlardagina tazkiranavis ushbu yondashuvni o‘zgartirib, zamondoshlarining she‘rlarini kengroq va atroflicha tahlil hamda tanqid qilishga o‘tadi. Tazkirada ko‘zga tashlanadigan bunday qisqa va muayyan tanqidlardan asarning yana bir o‘ziga xos jihati ayon bo‘ladiki, bu - she‘rning ko‘proq zohiriy (shakliy) tomoniga qaratilgan tanqiddir. Masalan, Samarqandlik Bahriyning quyidagi baytida ham ushbu holat yaqqol kuzatiladi. Shu tariqa, Mutribiy Samarqandiyning Bo‘ri Balxiy [4, 63a], Hoji Ataliq Durrmon [4, 94a] va boshqa bir qator ijodkorlar xususidagi tanqidiy qarashlarida ham ayni shu holat kuzatiladiki, ular asosan vazn va qofiya masalalari, davrning ommalashgan she‘riy san‘atlari hamda san‘atli (masnu‘) she‘rlar qo‘llash doirasidan tashqariga chiqmaydi. Shunga qaramay, mazkur tazkirada she‘rning ichki mazmun-mohiyati va badiiy go‘zalligi estetik (zeboishunoslik) nuqtayi nazardan baholangan va tanqid qilingan o‘rinlar ham uchrab turadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Mutribiy tazkirasida o‘z davrida ommalashgan shoh shoirlar va saroy adabiyotining xususiyatlariga doir qimmatli ma‘lumotlar jamlanishi bilan bir qatorda, turli kasb-hunar egalari bo‘lgan zamondoshijodkorlarning sermahsul adabiy merosi va ijodiy o‘ziga xosliklari haqida ham so‘z yuritiladi. Tazkiranavisning bunday sinchkovlik bilan olib borgan kuzatuvlari tufayli asar sahifalarida zikr etilgan shoirlar timsolida o‘sha davr adabiy jarayonining turli qirralari namoyon bo‘ladi. Muallif adabiy meros bilan bir qatorda, shoirlarning ilmiy asarlari hamda kasb-korini ham tilga oladiki, bu davr adabiy muhitining rivojlanish omillarini va adabiy g‘oyalarning shakllanish xususiyatlarini har tomonlama anglash uchun nihoyatda zarur mezon hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, Mutribiy adabiyot, san‘at va ilm-fanda ustoz-shogirdlik maktabining shakllanish xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratgan. U shoirlarning o‘zaro ilmiy aloqalarini, bir-birlariga ko‘rsatgan ta‘siri va ijodiy bahralanishlarini mufassal va muxtasar tahlillar orqali yoritib, ijodkorlar dunyoqarashining shakllanish zaminlarini aniq ko‘rsatib bergan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бобопур, Юсуф. “Натоижу-л-афкор” тазкираси ва Ҳиндистондаги форсий тазкиранавислик анъанаси // Китобмоҳи адабиёт. – 1387 (ҳизрий-шамсий). – № 28. – Б. 48-55.
2. Каримов У. Адабиёти тоҷик дар асри XVI (XVI аср тоҷик адабиёти). – Душанбе: Дониш, 1985.
3. Нафисий, Саид. Сўзбоши / Бадриддин Ҳилолий Чағатойий девони. – Техрон: Санойи, 1368 (ҳизрий-шамсий). – Б. “Панж”-“Бисту чаҳор”.
4. Мутрибий Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. – ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. – Инв. № 2253.
5. Шамисо, Сирус; Фарқадоний, Шахло. Хони Орзунинг “Мажмаъу-н-нафоис” тазкирасидаги танкидий қарашлари таҳлили // Шибҳи қора тадқиқотлари фасилномаси (Ярим орол тадқиқотлари журналі). – 1389 (ҳизрий-шамсий). – Иккинчи йил. Бешинчи сон. – Б. 7-28.
6. Шафиъиён, Саид. Адабий тазкираларга янгича нигоҳ (Адабий тазкираларнинг жанр хусусиятлари баҳси ва уларни таснифлаш лойиҳаси) // Фунуни адабий (Илмий-тадқиқотлар журналі). – 1393 (ҳизрий-шамсий). – Олтинчи йил. Иккинчи сон. – Б. 85-104.